


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya**  
**magistratura mutaxassisligining**

***MALAKA TALABI***

Toshkent – 2024



**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil «01» 08 dagi 277 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standardi. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

**MUNDARIJA**

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi .....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatlarning sohalari .....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari .....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar .....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>7</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>9</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>9</b>
	<b>Bibliografik ma’lumotlar .....</b>	<b>11</b>
	<b>Kelishuv varag‘i .....</b>	<b>12</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

70230103 - Folklorshunoslik va dialektologiya bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanishi.**

Malaka talabi 70230103 - Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura mutaxassisligining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavrlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatlarning sohalari:**

Ijtimoiy-gumanitar sohadagi yo'nalish bo'lib, oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida o'zbek tili, umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida folklorshunoslik hamda dialektologiya, o'zbek tili va adabiyot fanlarini o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida ilmiy-tadqiqot markazlarida, nashriyotlarda, turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida, davlat boshqaruvi organlarida, har xil shakldagi mulk, sanoat va biznes (ta'lim) tashkilotlarida mutaxassislikka oid kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

*Magistratura mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari va soha mutaxassislarining taklif va*

*talablaridan kelib chiqqan holda magistrnlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.*

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari:**

oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, umumta‘lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta‘lim muassasalarida;

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi;

ma‘naviy targ‘ibot ishlari bo‘yicha mutaxassis talab etiladigan hokimiyat va boshqa boshqaruv tizimlari;

ma‘naviy meros muhofazasi bilan bog‘liq qo‘mita va davlat idoralari;

gazeta va jurnallar tahririyati, radio va televideniye, nashriyotlar;

sohaga oid ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, kutubxonalar;

madaniyat markazlari, baxshichilik maktablari;

ixtisoslik sohasiga oid boshqa tashkilotlar.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari**

• *ilmiy-tadqiqot;*

• *ma‘naviy va ma‘rifiy;*

• *tashkiliy-boshqaruv;*

• *pedagogik (oliy ta‘lim muassasalari)*

• *konsalting xizmati va shu kabilarni o‘z ichiga oladi.*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalar.**

70230103 - *Folklorshunoslik va dialektologiya* mutaxassisligi bitiruvchilari kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida qo‘shimcha kasb ta‘limini olishi mumkin.

Shuningdek, magistrlar kasbiy moslashuv imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatlarini tashkil etishi mumkin.

### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

tegishli fan sohalariga oid ilg‘or tajribalarni inobatga olgan holda, mutaxassislikka oid yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot loyihalarini o‘rganish, tahlil qilish va umumlashtirish;

filologiya sohasida ilmiy tekshirish institutlarida ilmiy xodim, tadqiqotchi-izlanuvchi sifatida namunaviy tadqiq usullari hamda folklorshunoslik va dialektologiyaning amaliy yo‘nalishida eksperimentlar o‘tkazish va natijalar bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar berish;

kasbiy faoliyatiga mos ilmiy adabiyotlarni, ilmiy tadqiqot loyihalarini va yangi ilmiy natijalarni o‘rganish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

ilmiy-tadqiqot, pedagogik va ilmiy-pedagogik mavzularga mos jurnallar, to'plamlarga maqola va tezislar tayyorlash.

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, umumta'lim, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv- metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqish va o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni shakllantirish va tuzish;

mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish; o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish.

#### **Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:**

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkillashtirish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga ma'naviy merosga muhabbat, sog'lom e'tiqodga chanqoqlik, o'zaro mehr-shafqat g'oyasini singdirish;

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish;

globalashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda yozma ma'naviy merosning o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha yakka tartibda suhbat o'tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda umuminsoniy qadriyatlar, mehmuruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarini ochib berish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish; nostandart vaziyatlarda tashkiliy boshqaruv qarorlari qabul qilishi va ushbu qarorlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish;

nodavlat va notijorat tashkilotlarida, xususiyl tadbirkorlik sub'ektlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha menejer sifatida faoliyat yuritish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

#### **Pedagogik faoliyatida (Oliy ta'lim muassasalarida):**

o'zbek folklori va o'zbek dialektologiyasini, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy–nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirish;

o'zbek folklori va o'zbek dialektologiyasini o'qitishning samarali usullarini chuqur egallashi va undan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lish;

o'qitish metodikasini egallash;

oliy ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi muassasalarida mutaxassisligiga oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

gumanitar fanlar sohasi uchun DTS, Malaka talablari, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish.

#### **Konsalting xizmati faoliyatida:**

yo'nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron video va audio mahsulotlarni ekspertiza qilish;

mutaxassislikka mos maslahatchilik xizmati;

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy g'oya va milliy g'ururni singdirish;

mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha suhbatlar o'tkazish;

o'zbek folklori va dialektologiyasi tarixini ilmiy o'rganish, jarayonlarni ob'ektiv va xolis ilmiylik nuqtai nazaridan yoritish;

tadqiq qilingan mavzular bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'lish;

kutubxonalar, axborot-ressurs markazlari, vaqtli matbuot sahifalari va arxiv ma'lumotlaridan foydalana olishga oid metodik faoliyatni amalga oshirish;

pullik ta'lim xizmati ko'rsatish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha davlat grantlari va xo'jalik shartnomalari asosida tadqiqot ishlari boshqa xizmatlarni ko'rsatish;

ixtisoslikka mos sohalar bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

milliy-ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning nazariy asoslarni anglagan holda "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish" bosh g'oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g'oyalar bilan mutanosibli va farqini bilishi;

o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi, fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;

folklorshunoslik va shevashunoslikning nazariy asoslarini bilish;

xalq og'zaki ijodi va shevashunoslikning ilmiy muammolarini o'rganish; folklor poetikasi va xalq shevalariga doir qonuniyatlarni ahglash va tadqiqotchilik faoliyatida qo'llay olish;

o'zbek mifologiyasi va dialektolofiyasi tarixi va taraqqiyot bosqichlarini bilish;

baxshichilik san'ati va xalq dostonchiligi xususiyatlarini anglash;

o'zbek shevalaridagi o'ziga xos fonetik, leksik grammatik xususiyatlarni hududiylik asosida o'zlashtirish, sheva vakillari nutqini dialektal matnlar sifatida yoza olish, hududiy dialektal farqlarni bilish, o'zbek shevalari leksikasi va

leksikografiyasi, areal lingvistikaning nazariy bilim va amaliy tajribalariga ega bo'lish;

maxsus fanlarni o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi, pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferençiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqishko'nikmalariga ega bo'lish;

dialektologiya - ijtimoiy lingvistika sohasi ekanligi, tillarning shevalar tizimi, o'zbek tili shevalari hozirgi o'zbek tilining asosi ekanligi, o'zbek shevalarining o'zbek adabiy tili, uning tarixi va boshqa turkiy tillarni o'rganishda boy manba bo'lishi haqida tasavvurga ega bo'lishi, sheva, dialekt, lahja tushunchalari mazmuni, o'zbek tilining murakkab dialektal tarkibi, transkripsion belgilar tizimi, shevalarni o'rganish metodlari, o'zbek shevalarining muhim fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari, o'zbek shevalarida amal qiluvchi fonetik qonunlar, lingvistik geografiya tamoyillari, badiiy asarlardagi dialektizmlarning xususiyatlari, o'zbek shevalarining tasnifini bilishi va ulardan foydalana olishi; transkripsiyada yozilgan matnlarni o'qish, sheva vakillari nutqidagi dialektal xususiyatlarni transkripsiyada yozib olish, o'zbek shevalarining muhim fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini tushuntirib bera olish, muayyan bir sheva xususiyatlarini tavsif qila olish, uning dialektal tizimdagi o'rnini belgilay olish, pedagogik faoliyatida o'quvchilar nutqidagi dialektal xatolarni ilg'ay olish va bartaraf qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

o'zbek mifologiyasi, folklor dialektologiyasi, folklorshunoslikka kirish, baxshichilik san'ati va dostonchilik maktablari, marosim folklori, o'zbek shevalari matnlarining lingvistik tahlili, o'zbek shevalari korpusi, tarixiy dialektologiya, dialektologiya va etnolingvistika, dialektal leksikografiya, o'zbek shevalari matnlari sintaksisi, bolalar folklori, o'zbek tilshunosligi, umumiy tilshunoslik, qadimgi turkiy til, o'zbek tili va o'zbek adabiyoti tarixi, nazariyasi, jahon adabiyotiga oid bilimlarni egallash, til fanlari, adabiyotning dolzarb masalalarini ilg'ay olish, ilmiy faoliyatda qo'llay bilish va o'quvchilarga yetkaza olish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, *OTM* tizimining mos ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha amaliy, nazariy va laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish va tuzish qobiliyatiga ega bo'lishi;

mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi;

muloqot madaniyatini egallagan bo'lishi, mantiqiy fikrlay olish, og'zaki va yozma nutqini dalillagan holda aniq, to'g'ri bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

### 3. Amaliyotga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy-pedagogik amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha *ilmiy-pedagogik amaliyot* o'tkaziladi.

### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1500</b>	<b>50</b>	
1.01	ITM 1 05	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	150	5	1
1.02	XOIP 1 05	Xalq og'zaki ijodi poetikasi	150	5	1
1.03	FN 1,2 10	Folklorshunoslik nazariyasi	300	10	1,2
1.04	AL 1,2 09	Areal lingvistika	270	9	1,2
1.05	O'SHTT 2,3 11	O'zbek shevalari tadqiqotlari tarixi	330	11	2,3
1.06	MFO'M 2 04	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.07	O'M 3 06	O'zbek mifologiyasi	180	6	3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>300</b>	<b>10</b>	
2.01		<i>Tanlov fanlari (2 ta fan)</i>	300	10	1,2
<b>Kvalifikatsiya:</b>		filolog, pedagog-tadqiqotchi.			
<b>3.00</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1-4</b>
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## **Bibliografik ma'lumotlar**

UDK 002: 651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, kasbiy faoliyat obykti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, o'zbek mifologiyasi, folklor dialektologiyasi, folklorshunoslikka kirish, baxshichilik san'ati va dostonchilik maktablari, marosim folklori, o'zbek shevalari matnlarining lingvistik tahlili, tarixiy dialektologiya, dialektologiya va etnolingvistika, dialektal leksikografiya, o'zbek shevalari matnlari sintaksisi, bolalar folklori, o'zbek tilshunosligi, umumiy tilshunoslik, qadimgi turkiy til, o'zbek tili va o'zbek adabiyoti tarixi, nazariyasi, jahon folklori, folklorshunoslik nazariyasi, xalq og'zaki ijodi, areal lingvistika, o'zbek shevalari tadqiqotlari tarixi.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQLIGAN:**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**



Rektor  **Sh. Sirojiddinov**

2024-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

**KELISHILGAN:**

**O'zbekiston Respublikasi**

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi**


**O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va  
folklori instituti**

Direktor  **M. Boltaboyev**  
2024-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_  
M.O.

Direktor  **N. Mahmudov**  
2024-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_  
M.O.

**O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi**



Direktor  **J. Eshonqulov**

2024-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_